

"OILA" KONSEPTINING QIYOSIY TAHLILI

*Anorqulova Ozoda Nizomjon qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti
Ozodaanorqulova50@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada "oila" konsepti bo'yicha amalga oshirilgan ayrim qiyosiy tadqiqotlar bilan bir qatorda o'zbek lisoniy manzarasida oila bilan bog'liq tushunchalar tahlilga tortiladi. O'zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, boshqird va rus tillarida "oila" konsepti bilan bog'liq ayrim tadqiqotlarga nazar solgan holda xulosalar beriladi. Bundan tashqari, o'zbek tilida "oila" konseptining milliy modeli, freym va milliy ramzi haqidagi muxtasar fikrlar keltiriladi.

Kalit so'zlar. "Oila" konsepti, lisoniy manzara, qiyosiy tadqiqot, o'zbek va qoraqalpoq tili, qozoq, boshqird, rus, qirg'iz tili, yadro, mental munosabatlar.

"AİLE" KAVRAMININ KARŞILAŞTIRMALI ANALİZİ

*Anorkulova Ozoda Nizamcan kızı,
Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü
Özbek dili ve edebiyatı bölümü doçenti*

Özet. Bu makalede, "aile" kavramı üzerine yapılan bazı karşılaştırmalı çalışmaların yanı sıra Özbek dil ortamında aile ile ilgili kavramlar analize tabi tutulmaktadır. Özbekçe, Karakalpakça, Kazakça, Kirgızca, Başkurtça ve Rusça dillerinde "aile" kavramıyla ilgili bazı çalışmalara bakılarak sonuçlar verilmiştir. Ayrıca Özbek dilinde "aile" kavramının ulusal modeli, çerçevesi ve ulusal sembolü sunulmaktadır.

Anahtar kelimeler. "Aile" kavramı, dil manzarası, karşılaştırmalı çalışma, Özbek ve Karakalpak dili, Kazakça, Başkurtça, Rusça, Kirgızca, nükleer, zihinsel ilişkiler.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ "СЕМЬЯ"

*Аноркулова Озода Низамжон кызы,
Узбекско-Финляндский педагогический институт
доцент кафедры узбекского языка и литературы*

Аннотация. В данной статье наряду с некоторыми сравнительными исследованиями, проведенными по концепту "семья", анализируются понятия, связанные с семьей в узбекском языковом ландшафте. В узбекском, каракалпакском, казахском, киргизском, башкирском и русском языках даны выводы с оглядкой на некоторые исследования, связанные с понятием "семья". Кроме того, на узбекском языке приводятся краткие представления о национальной модели, рамке и национальном символе понятия "семья".

Ключевые слова. Понятие "семья", языковой ландшафт, сравнительное исследование, узбекский и каракалпакский язык, казахский, башкирский, русский, киргизский язык, ядро, ментальные отношения.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CONCEPT "FAMILY"

*Anorkulova Ozoda Nizamjan kizi,
Uzbek-Finnish pedagogical institute
associate professor of the department of Uzbek language and literature*

Annotation. In this article, along with some comparative studies carried out on the concept of "family", concepts related to the family in the Uzbek linguistic landscape are subject to analysis. Conclusions are given in Uzbek, Karakalpak, Kazakh, Kyrgyz, Bashkir and Russian, looking at some studies related to the concept of "family". In addition, in the Uzbek language, the national model of the concept of "family", the frame and the national symbol are presented.

Keywords. Concept "family", linguistic landscape, comparative study, Uzbek and Karakalpak language, Kazakh, Bashkir, Russian, Kyrgyz language, nuclear, mental relations.

Azal-azaldan sharq dunyosida oilaviy munosabatlar, unga bo'lgan mehr, sadoqat, intilish o'ziga xos qadriyat sifatida ulug'lanadi. Bu shunday makonki, doimo o'ziga tortadi, unda ilqlik, birdamlik mujassam. Insonlar bu makonda kamol topadi, aksiologik qarashlarini shakllantiradi hamda kelajak hayoti uchun ham zamin yaratadi. Qadimda insonlar bir oila bo'lib yashash tushunchasiga ega bo'limganlar. Oilaviy birlik jamiyat, davlat rivojlanishi bilan mustahkamlanib borgan.

Tillarni qiyoslashda ularning qarindoshlik, hududiy yaqinlik xususiyatlariha ham ahamiyat berish lozim, masalan o'zbek va qoraqalpoq tillari ana shu jihatlardan bir-biriga yaqin. Qardosh tillar va bir mamlakat hududiga tegishli bo'lsalar-da, oilaviy qadriyatlar, o'zaro munosabatlar birmuncha farq qiladi. Mana shunday xususiyatlarni D.U.Dospanova o'zining "O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi "oila" konsepti" deb nomlanagan maqolasida ochib bergan. Unda o'zbek va qoraqalpoq tilida so'zlashuvchilar mentalitetida "oila" konseptining alohida xususiyatlari, antroponomlarning qo'llanilishi, qarindoshlik atamalarining ifodalanishi haqida ma'lumotlar beriladi: O'zbek tilida - aka, uka, ota, xola, singlim, kenayi va boshqalar; qoraqalpoq tilida - aga, ajaga, kishe, jenga, apa, jezda. Mazkur atamalardan foydalanish qarindoshlik munosabatlari va darajalarini, yosh bilan bog'liq jihatlarini belgilaydi. Maqolada o'zbek va qoraqalpoq tillarida quyidagicha qarindoshlik yo'naliishlari ajratiladi: ota-ona – farzandlar; 2) farzandlar – ota -ona; 3) bir avlod vakillari; 4) turmush o'rtoq; 5) uzoqroq qarindoshlar.

Oila madaniyat namoyon etuvchi bo'g'in sanalganligi tufayli bu borada bajarilgan ishlarning aksariyatida turli tillarda oila bilan bog'liq holatlar qiyoslangan. Shunday ishlardan yana biri A.A.Ivanenko tomonidan amalga oshirilgan. Olima o'z tadqiqotida rus va qirg'iz tillarida "oila" konseptining namoyon bo'lishi mavzusida bo'lib, bunda ham tajriba ma'lumotlariga tayanilgan. Mazkur kitobda olamning rus va qirg'iz tili manzarasida "oila" ning umumiyligi konsept sifatidagi xususiyatlari lingvistik-madaniy hamda vazifaviy-semantic tasnif asosida ochib berilgan [1:2]. Rus va qirg'iz tillari kelib chiqish, turkumlanish jihatdan bir-biridan farq qilsa-da, ayrim madaniy qadriyatlar, turmush tarzi, hududiy yaqinligi jihatdan yaqinlik kasb etadi. Ularning grammatik qurilishi, insonlar tafakkurida ham o'ziga xos umumiyligi hamda xususiy jihatlari mavjud.

Qiyosiy tadqiqotlar nafaqat ikki til, balki uch til misolida amalga oshirilgan o'rinlar ham mavjud, masalan, G.U.Urkinbayevaning "Rus, qozoq va boshqird tillari olamning lisoniy manzarasida "oila" konsepti" nomli maqolasida boshqird folklor asarlarining turli janrlarini o'rganish asosida boshqird xalq madaniyatida «семья/файл» tushunchasi va oilaviy munosabatlarning ifodalanishi hamda kontekstual aktuallashuvi ko'rib chiqiladi. Boshqird xalq dunyosining lingvistik manzarasida nikoh bilan bog'liq tushunchalarga қозалай, яусылау, кәләүлеккә һоратыу, катынлыкка һоратыу, кәләүлеккә әйттепеү, қыз әйттепеү, қыз йәрәүтепеү, йәрәшөү каби marosimlar kirishi maqolada keltirilgan. Shuningdek, rus va boshqird oilalari tilida kelgan semaning semantic hajmi qozoq tiliga nisbatan keng. Rus tilida, qozoq tilida bo'lgani kabi oila so'zi qarindosh tillar guruhi (til oilasi) murojaat qilish uchun ishlatilmaydi. Shu bilan birga, oila, boshqirdlarning fikriga ko'ra, uy va birga yashaydigan yaqin qarindoshlar guruhi va mehnat faoliyati yoki mafkura, san'at yo'naliishi, jinsi, familiyasi bilan birlashtirilgan odamlar jamoasidir. Qozoq tilida ushbu ma'nolarni yetkazish uchun turli xil leksemalar qo'llaniladi (uy, otbasi/januya/oshak oila, top guruh, ru rod, aulet dinastiya, familiya). Rus madaniyatida qon-qarindoshlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishning asosiy tamoyillaridan biri bu "katta" va "kichik" oila a'zolariga qarshilik ko'rsatmaslik prinsipidir. Rus madaniyati oila a'zolarining


kattaligi bo‘yicha qat’iy ierarxik munosabat bilan ajralib turadi, kichik qarindoshlar oqsoqollarga bo‘ysunishlari kerak, biz buni zamonaviy qozoq tilida kuzatmaymiz [3:59]. Maqolada mana shunday jihatlar tushunarli izohlar asosida yoritib berilgan. U orqali uchala tilda ham “oila” konseptiga doir manzarani aniqlash mumkin bo‘ladi.

A.S.Litvinenko o‘z tadqiqotiga boshqa tomondan yondashadi. U borliqda oila konseptining qiymatini aniqlash barobarida, ingliz tilshunosligi vakillarining oila shakllanishi, o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi qarashlari, shuningdek, ingliz tilida so‘zlashadigan aholining oila qiymat tushunchasiga oid qarashlari, qolaversa, oilaviy munosabatlar aks etgan badiiy asarlar tahlili turli leksikografik asarlar hamda yondashuvlar asosida ochib berilgan [2:76].

Kishilik jamiyatida oila, uni tashkil qiluvchi birliklar juda muhim yadro sanaladi. Mazkur tuzilma bir vaqtning o‘zida tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy-madanliy jarayonlarga dahldor bo‘lish bilan bir qatorda lingvistik qiymatga ega birlik sifatida tadqiq obyektiga ham aylanmoqda. Xususan, tahlil etmoqchi bo‘lganimiz “oila” konseptining lingvomadaniy xususiyatlari ham bu jihatdan xarakter kasb etadi. Insoniyat tarixida mavjud bo‘lgan va ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib kelayotgan turli xil an'analar, urf-odatlar, qadriyatlarning shakllanish, saqlanish va tashilish asosi oiladir. Bejizga xalq orasida “Oila – qadriyatlar beshigi” singari iboralar tildan-tilga ko‘chmagan. Quyida oila bilan bog‘liq ayrim xususiyatlarning lingvistik-madanliy jihatlari tahlilga tortiladi.

“Oila” konseptining umumiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: tanlangan semantik maydonlarning tuzilishi, ushbu semantik maydonlar yadrosining o‘xhash tarkibiy qismlari, yadro qonuniyatlarida umumiy xususiyatlarning mavjudligi. Tahlilga tortilayotgan konseptning milliy o‘ziga xos xususiyatlari jamiyatdagi etnik-madanliy qarashlar ta’siri bilan belgilanadi, bu esa quyidagilarda aks etadi: o‘rganilayotgan semantik maydonlarning miqdoriy tarkibidagi farq, yadro va periferik hududlarning fraksiyasi, semantik maydonning individual eksponentlarining lakunarligi, leksemalarning semantik tarkibidagi farqlar.

“Oila” konseptining prototip modeli taxminan quyidagicha shakllangan bo‘ladi:



Aytib o‘tish joizki, ushbu model qat’iy va keng qamrovli emas, u kognitiv jarayon bilan bog‘liqligi sabab o‘zgarishi, kengayishi yoki torayishi ham mumkin. “Oila” konseptining keltirilgan tarkibi o‘z-o‘zidan biror xalqqa tegishli bo‘lgan milliy-madanliy xususiyatlarni qamrab oladi, ularni yangilaydi, farqli va etnik xususiyatlarini qamrab oladi.

O‘zbek konseptosferasida mavjud bo‘lgan “oila” lingvistik-madanliy jihatdan keng qamrovli yadroga ega. Ya’ni oilaning asosini ota-onamunosabatlari, farzandlar, periferiyasini esa buvi, bobo, qavm-qarindoshlar tashkil etadi. Oila nikoh asosida tashkil etiladi, shundan so‘ng ikki tomonning nikoh ahdi bilan birlashishidan er-xotinlik munosabatlari shakllanadi. Ushbu munosabatlar ierarxik tarzda belgilanadi. Uning dominant darajasida erkak turadi, perifiks darajada esa ayol turadi, sababi erkak

nikoh taklifini beradi / ayol nikohni qabul qiladi; erkak olib keladi / ayol uzatiladi; erkak qaror qiladi / ayol bo‘ysunadi va boshqalar. Demak, ayolning nikoh va turmushdagi roli erkakka nisbatan passivroq bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida oila yadrosi qavm-qarindoshlar tizimi bilan uzviy bog‘liq. Bu qon, nasl, sulola kabi tushunchalar bilan mushtaraklik hosil qiladi. Mental tabiatga ko‘ra oila barpo bo‘lishida yuqorida keltirib o‘tilgan atributlar muhim, ya’ni nikoh taklifini berayotgan tomon ham, qabul qiladigan tomon ham, avvalo, oila ikkinchi tarafning nasl-nasabi, qon-qarindoshlarining ijtimoiy, ma’naviy holati bilan yaqindan tanishadi va har tomonlama mos kelinsa, nikohga rozilik bildirishadi, ya’ni nikohda ikkala tomon tengligiga alohida e’tibor qaratiladi.

“Oila” konsepti uzoq yillardan buyon mavjudligiga qaramasdan uni to‘liq shakllangan deb bo‘lmaydi, sababi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-madaniy va mafkuraviy o‘zgarishlar mazkur konsept bilan bog‘liq kognitsiyalarning o‘zgarishiga olib keladi. Bu masalaga misol keltirish uchun uzoqqa bormaylik, bundan yuz yil muqaddam ikki tomonning nikoh munosabatlari o‘rnatalishi uchun kechadigan jarayonlarni ko‘z oldimizga keltiraylik: sovchilik, ota-onalrizosi va nikoh. Ikki nikohlanayotgan inson bir-birini nikoh xutbasi o‘qilganlan so‘ng ko‘radi. A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanida Otabek va Kumushning ilk bor nikohdan so‘ng ko‘rishgan tasviri yuqoridagi fikrlarning tasdig‘i hisoblanadi. Bu jarayonda, asosan, ota-onalarning roli birlamchi bo‘ladi. Bugungi kunda bu qarashlar deyarli qolmagan. Oila qurish taklifi yigit tomonidan beriladi va ikki tomon kikohdan oldin ko‘rishihib, bir-birining xarakter-xususiyatlarini o‘rganishib oladi, ota-onalar ham farandlarining istak-xohishlarini inobatga oladi (ayrim holatlar bundan mustasno). Demak, insonlar dunyoqarashi, turmush tarzi, jamiyatdagi o‘zgarishlar ham “oila” konseptosferasining o‘zgarishiga olib keladi.

Umuman olganda, “oila” konseptining segmentatsiyasi, ko‘ptarmoqli ekanligi, freymlarning lisoniy shaxs ongidagi turli xil variantlari, oila bilan bog‘liq milliy ramzlar o‘zbek tilida so‘zlashuvchi insonlarning so‘z boyligi, kognitiv olami, pragmatik tafakkuri bilan ham chambarchas bog‘liqidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Иваненко А.А. Репрезентация концепта «семья» в русской и киргизской языковых картинах мира (на материале данных ассоциативного эксперимента). – М.: МГУ, МАКС Пресс, 2017. – С. 1–2.
2. Литвиненко А.С. Языковой анализ ценностного концепта Семья. – Санкт-Петербург, 2017. – С.76.
3. Уркинбаева Г.У. Концепт «семья» в русской, казахской и башкирской языковых картинах мира // Международный студенческий научный вестник. – 2015. – № 5-1. – С. 59-60.